

2-bo'lim. "ROBO WAR MINI" musobaqasini o'tkazish va g'oliblarni taqdirlash

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom "Robo War Mini" robotlar jang musobaqasini tashkil etish, o'tkazish, baholash va g'oliblarni aniqlash tartibini belgilaydi.

2. Ushbu musobaqa:

robot texnologiyalari va jangovar robotlar yo'nalishi bo'yicha musobaqa tizimini joriy etish orqali yuqori darajadagi texnik, muhandislik, dasturlash va strategik fikrlash qobiliyatiga ega ishtirokchilarni aniqlash, qo'llab-quvvatlash hamda ularning salohiyatini kompleks baholash;

robototexnika, sun'iy intellekt, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va innovatsion texnologiyalar sohasida istiqbolli yoshlarni saralash, ularni bosqichma-bosqich tayyorlash hamda zamonaviy texnologik kadrlar zaxirasini shakllantirish;

iqtidorli ishtirokchilarning individual qobiliyatlari va ixtisoslashuvi asosida robototexnika, muhandislik, dasturlash, texnik ekspluatatsiya va raqamli texnologiyalar bilan bog'liq yo'nalishlarga maqsadli yo'naltirishni tashkil etish;

ta'lim jarayonini zamonaviy robot texnologiyalari, innovatsion muhandislik va raqamli kompetensiyalar bilan uyg'unlashtirish orqali yoshlar uchun jozibador, nufuzli va intellektual rivojlanish imkoniyatiga ega muhitni shakllantirish;

jangovar robotlar va robotlashtirilgan tizimlarni samarali boshqara oladigan, innovatsion texnik yechimlar ishlab chiqishga qodir mutaxassislarni tayyorlash orqali texnologik rivojlanishni qo'llab-quvvatlash;

robotlar jangi va robot texnologiyalari sport yo'nalishining nufuzini oshirish, ishtirokchilarda texnik tafakkur, muhandislik madaniyati hamda sog'lom raqobat muhitini shakllantirish;

ishtirokchilarning kasbiy tayyorgarligi, texnik mahorati, tezkor qaror qabul qilish va jamoaviy hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish;

ta'lim muassasalari va jamoalar o'rtasida robotlarni loyihalash, yig'ish, dasturlash va boshqarish bo'yicha ilg'or tajribalarni ommalashtirish hamda tajriba almashishni tashkil etish;

robot texnologiyalari va jangovar robotlar sport yo'nalishini yanada rivojlantirish, zamonaviy texnik vositalar bilan ta'minlash va texnik reglamentlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

ishtirokchilarda o'z bilim va texnik salohiyatiga bo'lgan ishonchni shakllantirish, muammolarga innovatsion yondashuvni rivojlantirish;

ta'lim muassasalari va texnik to'garaklarda robototexnika yo'nalishini rivojlantirish hamda ishtirokchilarning mustaqil texnik ijodkorligini qo'llab-quvvatlash;

mas'ul tashkilotlar, ta'lim muassasalari va jamoalar o'rtasida yuksak texnik madaniyat, sog'lom raqobat muhiti va hamkorlikni mustahkamlash maqsadida o'tkaziladi.

II. Ishtirokchilarga qo'yiladigan talablar

3. Musobaqada 10-17 yoshgacha yoshlar umumta'lim maktablari o'quvchilari, professional ta'lim muassasalari o'quvchilari, oliy ta'lim muassasalari talabalari, mustaqil ixtirochilar va jamoalar ishtirok etishi mumkin.

Ishtirok yakka tartibda yoki jamoa tarkibida amalga oshiriladi.

Jamoa tarkibi 3 nafar a'zoga iborat bo'ladi.

Har bir robot uchun kamida 1 nafar operator belgilanadi.

Bir ishtirokchi bir vaqtning o'zida bir nechta robot bilan qatnashishi man etiladi.

III. Robotlarga qo'yiladigan texnik talablar

4. Robotning maksimal vazni 2 kilogrammdan oshmasligi lozim. Robot vazni akkumulyator, qurol tizimi, korpus va jangga doir barcha doimiy elementlari bilan birga o'lchanadi.

5. Robotning o'lchamlari 20 x 20 x 20 santimetrgacha bo'lishi shart.

6. Robot masofadan boshqariladigan bo'lishi shart.

7. Robot konstruktsiyasi mustahkam, xavfsiz va texnik ko'rikdan o'tishga yaroqli bo'lishi kerak.

8. Robotda elektron tizimi, akkumulyator, harakatlanuvchi va kesuvchi qismlar xavfsiz joylashtirilgan bo'lishi lozim.

9. Robotda akkumulyatorni uzishga imkon beruvchi aniq havfsizlik tugmasi bo'lishi shart.

10. Musobaqada radio kuchaytirgichlar, signal bostiruvchi qurilmalar, jammerlar va boshqa robot boshqaruviga aralashuvchi vositalardan foydalanish qat'iyan taqiqlanadi. Robot boshqaruv tizimi barqaror, himoyalangan, uzilishsiz ishlovchi bo'lishi lozim.

IV. Arena va xavfsizlik talablari

11. Arena ichki jang maydonining minimal o'lchami 2000 x 2000 x 1300 millimetrlarni tashkil etadi.

12. Jang jarayonida robotlarning nazoratsiz chiqib ketishini oldini oluvchi, tomoshabinlar va ishtirokchilar xavfsizligini ta'minlovchi, yuqori zarba

yuklamalariga bardosh beruvchi mustahkam konstruksiyaga ega usti yopiq bo'lishi shart.

13. Arena shakli to'rtburchak yoki sakkizburchak ko'rinishida bo'lishiga ruxsat etiladi.

V. Musobaqani o'tkazish tartibi

14. Janglar yakkama-yakka formatda o'tkaziladi. Har bir jang davomiyligi 2 daqiqa etib belgilanadi.

15. Hakamning signalisiz robotni ishga tushirish taqiqlanadi. Start signali berilgach, operatorlar robotlarni boshqarishni boshlaydilar.

16. Jang quyidagi hollarda muddatidan oldin to'xtatiladi:
robotlardan biri harakatsiz holatga tushib qolsa;
robot arena ichida jangni davom ettira olmaydigan texnik nosozlikka uchrasa;
hakamlar hay'ati favqulodda to'xtatish to'g'risida qaror qabul qilsa.

VI. Baholash mezonlari va g'olibni aniqlash

16. G'olib quyidagi hollarda aniqlanadi:
nokaut yo'li bilan;
baholash mezoni asosida;
hakamlar qarori asosida.

17. Hakamlar qarori.

Agar belgilangan vaqt yakuniga qadar aniq g'olib aniqlanmasa, hakamlar quyidagi mezonlar asosida baho beradilar:

hujumkorlik-20 ball;
nazorat va manevr sifati-20 ball;
texnik ustunlik-20 ball;
konstruktsiyaning barqarorligi-20 ball;
raqibga ta'sir darajasi-20 ball.

18. G'oliblarni quyidagi tartibda rag'batlantiriladi.

Musobaqa yakuniga ko'ra quyidagi o'rinlar bo'yicha g'oliblar aniqlanadi:

1-o'rin: Noutbuk;
2-o'rin: Planshet;
3-o'rin: Televizor;

G'oliblar sertifikat, kubok va boshqa rag'batlantiruvchi sovg'alar bilan taqdirlanishi mumkin.

VIII. Yakunlovchi qoidalar

19. Ushbu Nizom talablari buzilishi bo'yicha kelib chiqadigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.